



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№3(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 170 sahifa,  
16-mart, 2026-yil.*

## **BOSH MUHARRIR:**

**Karimova E'zoza Gapirjanovna** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Ibragimov X.I.** – pedagogika fanlari doktori, akademik  
**Shoumarov G'.B.** – psixologiya fanlari doktori, akademik  
**Qirg'izboyev A.K.** – Tarix fanlari doktori, professor  
**Jamoldinova O.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Sharipov Sh.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Shermuhhammadov B.Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Ma'murov B.B.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Madraximova F.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Kalonov M.B.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Nabiyev D.X.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Qo'ldoshev Q. M.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Ikramxanova F.I.** – filologiya fanlari doktori, professor  
**Ismagilova F.S.** – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
**Stoyuxina N.Yu.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
**Magauova A.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
**Rejep O'zyurek** – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
**Wookyu Cha** – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
**Polonnikov A.A.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
**Mizayeva F. O.** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
**Baybayeva M.X.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Muxsiyeva A.T.** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Aliyev B.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Abdullayeva N. Sh.** – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
**G'afurov D. O.** – falsafa fanlari doktori (Phd)  
**Shomurodov R.T.** – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Mirzayeva F. O.** – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Jalilova S.X.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Bafayev M.M.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Usmonova D.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
**Saifnazarov I.** – falsafa fanlari doktori, professor  
**Nematov Sh.E.** – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
**Tillashayxova X.A.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
**Yuldasheva F.I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Doniyorov S. M.** – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
**Yuldasheva D.B.** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
**Tangriyev A. T.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
**Ashurov R. R.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Panjiyev M. A.** – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
**Xudayberganov N. A.** – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li** – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish .....    | 18  |
| <b>Uralova Fotima Baxtiyor qizi</b>                                                                                                                            |     |
| Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....                                  | 23  |
| <b>G. A. Valiyeva</b>                                                                                                                                          |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari .....                                                     | 27  |
| <b>Suyunova Surayyo Ulash qizi</b>                                                                                                                             |     |
| Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish .....                                                                               | 31  |
| <b>Israilova Xusnida Adilovna</b>                                                                                                                              |     |
| Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish .....                                                                                                | 37  |
| <b>Raximova Feruza Najmiddinova</b>                                                                                                                            |     |
| Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish .....                                                  | 42  |
| <b>Dauekeeva Gulistan Orinbaevna</b>                                                                                                                           |     |
| Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari .....                                         | 46  |
| <b>Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna</b>                                                                                                                          |     |
| Velosiped haydashning afzalliklari.....                                                                                                                        | 49  |
| <b>Raxmonova Go'zal Bobir qizi</b>                                                                                                                             |     |
| Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане ..... | 54  |
| <b>Мирзакбарова Севда Бахиддиновна</b>                                                                                                                         |     |
| Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....                                          | 58  |
| <b>Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna</b>                                                                                                                           |     |
| Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....                                                                         | 62  |
| <b>Рахмонова Бахтигул Пайзилловна</b>                                                                                                                          |     |
| Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi .....                                                        | 65  |
| <b>Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi</b>                                                                                                                  |     |
| Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....                               | 71  |
| <b>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi</b>                                                                                          |     |
| Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..                                                      | 76  |
| <b>G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich</b>                                                                                                                     |     |
| Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili .....                                                                       | 83  |
| <b>Ismoilova N. Z.</b>                                                                                                                                         |     |
| Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....                                                                                       | 87  |
| <b>Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich</b>                                                                                                                       |     |
| Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati .....                                                                     | 91  |
| <b>Xatamova Munisa Mamadulla qizi</b>                                                                                                                          |     |
| Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi .....                                            | 95  |
| <b>Jurayeva Zulayxo Islomovna</b>                                                                                                                              |     |
| Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....                         | 102 |
| <b>Islamova Difuza Dilshodovna</b>                                                                                                                             |     |



|                                                                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni .....                     | 107 |
| <b>Begmatova Nasiba Mengnarovna</b>                                                                                                                   |     |
| Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi .....                                                     | 112 |
| <b>Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades .....                | 118 |
| <b>Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna</b>                                                                                                                |     |
| Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida) .....              | 122 |
| <b>Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi</b>                                                                                                                |     |
| Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli .....                     | 125 |
| <b>Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich</b>                                                                                                          |     |
| Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi .....                                                                                 | 128 |
| <b>N. Q. Mamasidova</b>                                                                                                                               |     |
| Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida) .....                                        | 131 |
| <b>Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna</b>                                                                             |     |
| Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash .....                                                                       | 134 |
| <b>Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li</b>                                                                                 |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari .....                                                                     | 137 |
| <b>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</b>                                                                                                                |     |
| Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi .....                                                               | 140 |
| <b>N. Sh. Miryusupova</b>                                                                                                                             |     |
| Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari .....                      | 143 |
| <b>Olimova Aziza Abdullayevna</b>                                                                                                                     |     |
| Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari .....                                                                               | 147 |
| <b>Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi</b>                                                                        |     |
| Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari ..... | 150 |
| <b>Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich</b>                                                                                         |     |
| Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi .....                                                     | 154 |
| <b>Sadatov Chori Xolmuradovich</b>                                                                                                                    |     |
| Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati .....                                                                  | 158 |
| <b>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna</b>                                           |     |
| Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi .....                                                                  | 162 |
| <b>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</b>                                                                                                              |     |
| Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish .....                                 | 165 |
| <b>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</b>                                                                                                               |     |
| Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта .....        | 168 |
| <b>Пак Диана Александровна</b>                                                                                                                        |     |



## UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA TEKNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA METODLARI

Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna

Namangan davlat pedagogika instituti,

Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-5140-7112

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim tizimida texnologiya fanining o'rni hamda umumta'lim maktablari o'quvchilarining tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda texnologiya mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali yondashuvlari yoritiladi. O'quvchilarning metakognitiv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati ham tahlil qilinadi. Umumta'lim maktablari texnologiya fanini o'qitish mazmunining yangilanishi hamda o'quvchilarning texnologik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning roli asoslab beriladi. Xususan, 5-sinf o'quvchilari uchun texnologiya darslarini STEAM yondashuvi va loyihaviy ta'lim asosida tashkil etishning afzalliklari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** texnologiya ta'limi, metakognitiv faoliyat, STEAM ta'limi, amaliy mashg'ulotlar, innovatsion yondashuv, fasilitatsiya, zamonaviy iqtisod, fan va texnika, loyihaviy ta'lim, ekologik yondashuv, o'z-o'zini baholash.

**Abstract:** The role of technology education in the modern educational system and modern approaches to organizing technology classes in general secondary schools are analyzed. Special attention is given to developing students' analytical and creative thinking and improving their metacognitive activities. The renewal of the content of technology education and the role of modern pedagogical approaches in developing students' technological competence are examined. The advantages of organizing technology lessons for 5th-grade students based on the STEAM approach and project-based learning are highlighted.

**Key words:** technology education, metacognitive activity, STEAM education, practical activities, innovative approach, facilitation, modern economy, science and technology, project-based learning, ecological approach, self-assessment.

**Аннотация:** Рассматривается роль технологии в системе современного образования, а также современные подходы и методы организации уроков технологии в общеобразовательных школах, направленные на развитие аналитического и творческого мышления учащихся. Особое внимание уделяется педагогической значимости совершенствования метакогнитивной деятельности учащихся. Анализируется обновление содержания преподавания технологии и роль современных педагогических подходов в формировании технологической компетентности школьников. Подчеркиваются преимущества организации уроков для учащихся 5-го класса на основе STEAM-подхода и проектного обучения.

**Ключевые слова:** технологическое образование, метакогнитивная деятельность, STEAM-образование, практические занятия, инновационный подход, фасилитация, современная экономика, наука и техника, проектное обучение, экологический подход, самооценка.

### KIRISH

Global axborotlashuv davrida texnologiya fani faqatgina jismoniy mehnatga tayyorlash vazifasini bajarib qolmay, balki intellektual salohiyatni amaliyotga tatbiq etish maydoniga aylandi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son<sup>1</sup> Qonuni va Milliy o'quv dasturi talablaridan kelib chiqib, 5-sinf o'quvchilarida texnik tafakkurni shakllantirish davr talabidir. Ushbu bosqichda o'quvchilarda mehnat operatsiyalarini bajarish bilan bir qatorda mahsulotning dizayni, uning iqtisodiy samaradorligi va ekologik xavfsizligini tahlil qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Mamlakatimizda samarali texnologik ta'lim tizimini joriy etishga qaratilgan tub islohotlar natijasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari hamda axborot-metodik imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>



kompetentligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o'zlashtirish natijalarini obyektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologiya ta'limini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish masalasi pedagogika fanida keng o'rganilgan. Xususan, N.A. Muslimov bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirish jarayonida texnologik ta'limning o'quv-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, texnologiya fanini samarali o'qitish o'qituvchining metodik tayyorgarligi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmasi hamda amaliy faoliyatni tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir. Muslimov N.A. 2015-yilda chop etilgan tadqiqotida texnologiya fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhim pedagogik omil ekanligini asoslab beradi.

Texnologiya ta'limida zamonaviy integratsion yondashuvlardan biri sifatida STEAM ta'limi alohida ahamiyat kasb etadi. A. Roberts o'zining "STEAM Education in Secondary Schools" nomli tadqiqotida fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini integratsiya qilish orqali o'quvchilarda ijodiy va analitik tafakkurni rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Roberts A. 2023-yilda chop etilgan ilmiy ishida texnologiya ta'limida loyihaviy faoliyat, amaliy tajribalar va muammoli vaziyatlarga asoslangan o'qitish metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar ham texnologiya fanini o'qitishning zamonaviy metodik asoslarini o'rganishga katta e'tibor qaratganlar. S.X. Abdullayev texnologik ta'lim o'qituvchisining ergonomik kompetentligini rivojlantirish masalalarini tahlil qilib, o'quv jarayonini samarali tashkil etishda ergonomik yondashuv muhim metodik omil ekanligini ko'rsatadi. Abdullayev S.X. 2023-yilda e'lon qilingan ilmiy maqolasida texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning amaliy faoliyatini ergonomik jihatdan to'g'ri tashkil etish ularning mehnat madaniyati va texnik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda texnologiya mashg'ulotlarini tashkil etishda metakognitiv faoliyat, innovatsion metodlar va amaliy loyihalar asosida o'qitish masalalari ham keng tadqiq etilmoqda. Xudoyqulov Sh.S., Ziyamova G.T. va O'sarova O. texnologiya mashg'ulotlarida "stack-n-whack" texnikasidan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadilar. Shuningdek, G.T. Ziyamova texnologiya darslarida metakognitiv faoliyatni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. M. Mo'minova esa o'qituvchilarning zamonaviy professional kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biri ekanligini ilmiy asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlarini o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, pedagogik kuzatish usuli orqali 5-sinf texnologiya darslarining tashkil etilish jarayoni, o'quvchilarning amaliy faoliyati hamda o'qituvchining metodik yondashuvlari o'rganildi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga oid ilmiy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va normativ hujjatlar tahlil qilinib, texnologiya ta'limining nazariy asoslari aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida so'rovnoma va suhbat metodlari yordamida o'quvchilar hamda o'qituvchilarning texnologiya darslariga bo'lgan munosabati, zamonaviy metodlardan foydalanish darajasi haqida ma'lumotlar to'plandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida qayta ishlanib, texnologiya mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Natijalar asosida zamonaviy yondashuvlarning o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun texnologiya darslarini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar nafaqat hunar o'rgatish, balki ularda tanqidiy fikrlash, kreativlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. 5-sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash rivojlanishi bilan birga amaliy harakatlar orqali natijaga erishishga bo'lgan kuchli ehtiyoj seziladi. Bu davrda fasilitatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchining ustidan buyruq beruvchi emas, balki uning g'oyalarini amalga oshirishga yordam beruvchi yo'naltiruvchi bo'lishi lozim. Integratsiya jarayonida nazariy bilimlarni (fizika, matematika, biologiya) amaliy buyum yasash jarayonida ko'rsatib berish kabi xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda ta'limda "shunchaki bajarish" emas, balki "tushunib, loyihalashtirib bajarish" tamoyili ustuvor hisoblanadi. Xususan, 5-sinf o'quvchilari uchun bu jarayon o'yin va amaliyot uyg'unligida kechishi kerak. Zamonaviy sharoitda o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samarador-

ligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda dars jarayonida amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi hamda mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

STEAM ta'limi zamonaviy texnologik ta'limning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini o'zaro integratsiya qilishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv 5-sinf texnologiya darslarida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash orqali namoyon bo'ladi. Masalan, "Yog'ochdan uy-ro'zg'or buyumlari yasash" mavzusida matematika fanida detalning masshtabini chizish va material sarfini hisoblash, fizika fanida kesuvchi asboblarning (arra, randa) ishqalanish kuchi va bosim qonuniyatlarini tushuntirish, san'at fanida esa buyumga badiiy ishlov berish, estetik ko'rinish berish hamda dizayn elementlarini qo'llash kabi jarayonlar integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Texnologiya darslarini tashkil etishda amaliy mashg'ulotlarning innovatsion metodikasidan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim omili hisoblanadi.

Loyihalash metodi asosida o'quvchilarga "Muammodan – yechimga" tamoyili asosida vazifa beriladi. Ushbu tamoyil asosida vazifani bajarish bosqichlari quyidagicha tashkil etiladi: empatiya bosqichida uyda qanday buyum yetishmayotgani aniqlanadi (masalan, qalamdon), fokus bosqichida buyum qanday qulayliklarga ega bo'lishi kerakligi belgilanadi, ideatsiya bosqichida eng yaxshi uchta eskiz chiziladi, prototip bosqichida tanlangan variant yasaladi, test bosqichida esa tayyor mahsulot amalda sinab ko'riladi.

Gamifikatsiya va musobaqa unsurlaridan foydalanish dars jarayonini qiziqarli tashkil etishga yordam beradi hamda o'quvchilarning darsga qatnashish faolligini oshiradi. Texnologiya darslarida o'yin metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. Dars oxirida eng sifatli tayyorlangan mahsulotlar uchun "Yil ixtirochisi" yoki "Oltin qo'llar" kabi nominatsiyalar joriy etish mumkin. "Sifat nazoratchisi" ro'lida har bir guruhdan bitta o'quvchi boshqa guruh ishini xolis baholaydi. "Eng tejamkor muhandis" nominatsiyasi esa kam material sarflab, ko'p mahsulot yaratgan o'quvchilarni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Ekologik yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi ekologik muammolar sharoitida o'quvchilarga chiqindi materiallardan (plastik idishlar, eskirgan matolar, qog'oz qutilar) foydali va dekorativ buyumlar yasashni o'rgatish muhim hisoblanadi. Chiqindi materiallardan (plastik, qog'oz, mato qirqimlari) yangi buyumlar yasash orqali tabiatni asrash g'oyasi singdiriladi. O'qituvchidan har bir darsni tashkil etish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv talab qilinadi. O'quvchilarga faqat nazariy bilim berish emas, balki hayotda zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalarni (asboblarni bilan ishlash, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, iqtisodiy tejamkorlik) ham rivojlantirib borish zarur. Mashg'ulotlarni tashkil etishda samarali metodlardan foydalanish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Texnologiya fani faqat qo'l mehnati bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy darslarda raqamli texnologiyalarni qo'llash ham muhim hisoblanadi. Xususan, 3D modellash tirish va VR texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy chizmachilik bilan bir qatorda 5-sinf o'quvchilariga Tinkercad yoki SketchUp kabi sodda dasturlarda detallarning 3D modellarini chizishni o'rgatish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarda fazoviy tasavvurni shakllantiradi. QR-kodli metodik qo'llanmalar orqali darslikdagi mavzularni video-darslar bilan integratsiya qilish ham samarali hisoblanadi. Masalan, "Arra bilan ishlash texnikasi" mavzusi yonidagi QR-kodni skanerlash orqali o'quvchi ushbu jarayonning professional ijrosini ko'rishi mumkin.

Shuningdek, 5-sinf texnologiya darslarining "Elektrotexnika" bo'limida "Oddiy elektron zanjir qurish" mavzusini yoritish jarayonida STEM yo'nalishlari ham qo'llaniladi. Bu jarayonda fan (science) yo'nalishida elektr toki va zanjirning ishlash prinsipi tushuntiriladi, texnologiya (technology) yo'nalishida zamonaviy yoritgichlar (LED) va energiya manbalari o'rganiladi, muhandislik (engineering) bosqichida sxema chizish va uni real modelga aylantirish amalga oshiriladi, san'at (art) yo'nalishida dizayn ishlab chiqiladi, matematika (mathematics) yo'nalishida esa kuchlanish va qarshilikni hisoblash asoslari tushuntiriladi.

Muammo va izlanish bosqichida o'quvchilarga vaziyatli topshiriq beriladi: tasavvur qiling, siz qorong'i g'orda ishlaydigan tadqiqotchisiz. Sizga kichik, ixcham va uzoq vaqt yonib turadigan chiroq kerak. Uni qanday yasash mumkin? Nazariy tushuncha bosqichida elektronika komponentlari bilan tanishtiriladi: LED (svetodiod) faqat bir tomonga tok o'tkazadi va nur sochadi, batareya (3V) elektronlar manbai hisoblanadi, rezistor esa LEDni kuyib qolishdan himoya qiluvchi element vazifasini bajaradi.

Muhandislik bosqichida "Qog'ozli chiroq" (Paper Circuit) loyihasi bajariladi. Bu loyiha uchun qimmatbaho asbob-uskunalar talab qilinmaydi. Kerakli jihozlar sifatida oddiy sim, 3V li tugmacha batareya (CR2032), svetodiod (LED) va qog'oz qisqich (skrepka)dan foydalaniladi. Ishni bajarish jarayonida qog'ozga batareya va LED joylashuvi belgilanadi, mis lenta yordamida o'tkazgich yo'lakchalari yopishtiriladi, LEDning uzun oyoqchasi batareyaning musbat qismiga yo'naltiriladi hamda qog'ozni buklash orqali batareya zanjiriga ulanadi.

Matematik va fizik tahlil jarayonida o'quvchilarga oddiy hisob-kitob tushuntiriladi. Agar LED ishlashi uchun 2V kerak bo'lsa, 3V li batareyadagi ortiqcha 1V rezistor yordamida issiqlikka aylantiriladi va LEDni kuyib qolishdan saqlaydi. Amaliy ish yakunida o'quvchilarning tushunish darajasini aniqlash maqsadida quyidagi savol beriladi: agar LEDning oyoqchalari teskari ulangan bo'lsa nima bo'ladi? Javob: u yonmaydi, chunki LED



yarimo'tkazgich element hisoblanadi. STEAM ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida o'quvchilar o'zlari yasagan sxema ishlamagan holatda nosozlik sababini aniqlashni ham o'rganadilar. O'qituvchi uchun muhim eslatma sifatida batareyalarni qisqa tutashtirmaslik, ya'ni musbat va manfiy qutblarni sim orqali bevosita birlashtirmaslik kerakligi tushuntiriladi. Shuningdek, svetodiodlarni to'g'ridan-to'g'ri rozetkaga ulash qat'iyman etilishi alohida ta'kidlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumta'lim maktablarida texnologiya darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish o'quvchini passiv tinglovchidan faol ijodkorga aylantiradi. 5-sinf o'quvchilari misolida ko'rib chiqilgan ushbu innovatsion metodikalar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'lanishini ta'minlaydi hamda bo'lajak mutaxassislar uchun poydevor vazifasini o'taydi. Bunda o'qituvchi faqat instruktor emas, balki yo'naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajarishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>
2. Muslimov N.A. "Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi." – T.: 2015.
3. Roberts A. "STEAM Education in Secondary Schools." Oxford Press, 2023.
4. Abdullayev S.X. Ergonomik yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi ergonomik kompetentligini takomillashtirish metodikasi. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – № 6. – B. 842.
5. Xudoyqulov Sh.S., Ziyamova G.T., O'sarova O. Texnologiya mashg'ulotlarida \*\*\*"stack-n-whack texnikasi"\*\*\*dan foydalanish. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali. – 2025-yil, 1-son.
6. Mo'minova M. (2025). Modern Professional Competencies of a Teacher: Analysis and Practical Recommendations. Scientific-Theoretical Journal of International Education Research, 3(3), 4–8. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16227089>
7. Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna. The Theoretical Foundations of Developing Students' Metacognitive Activities in Teaching Technology in General Education Schools. International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – ISSN: 2692-515X.
8. Ziyamova G.T. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida metakognitiv faoliyat turlarini takomillashtirish. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi ilmiy-uslubiy jurnali. – 9-to'plam, 1-son.
9. Ziyamova G.T. Organization of Technology Training: Modern Approaches. International Journal of Artificial Intelligence. – Volume 6, Issue 0. – 2026.
10. Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish hamda samaradorligini oshirishda grafik organayzer texnologiyasidan foydalanish. Journal of Universal Science Research. – ISSN (E): 2181-4570. ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023; SJIF 2024 = 5.073. – Volume 2, Issue 11.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.